



KOXLEAR IMPLANTDAN KEYIN OG'ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Yusupova Muxlisa

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Surdotarjimonlik yo'nalishi 3-kurs talabasi

Narmetova Yulduz Karimovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
dotsenti, psixologiya fanlari doktori, ilmiy rahbar
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17646447>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 19-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

*koxlear implant, eshitish
reabilitatsiyasi, og'zaki nutq,
eshitish diqqatini rivojlantirish,
fonematik eshitish, talaffuz*

ABSTRACT

Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda koxlear implant o'rnatilgandan so'ng og'zaki nutqni shakllantirish jarayonining asosiy bosqichlari, ularning mazmuni va reabilitatsion mashg'ulotlarda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, eshitish reabilitatsiyasida surdopedagog, logoped va ota-onaning hamkorlikdagi faoliyati ahamiyati tahlil qilingan.

Koxlear implantatsiya – eshitmaydigan (kar, zaif eshituvchi) bolalar eshituvchilar dunyosiga kirish va dunyoni ovozlari, tovushlar orqali idrok imkoniyatini yaratuvchi hozirgi kunning eng samarali usullari hisoblanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanishda orqada qolish xavfiga ega bo'ladi. Bunday bolalarda tovushni idrok etish jarayoni cheklanganligi sababli, ularning og'zaki nutqini shakllantirish maxsus yondashuvni talab etadi. Koxlear implant texnologiyasi eshitish nervi orqali tovush signallarini uzatish imkonini berib, bolaga nutq tovushlarini eshitish va idrok etish qobiliyatini tiklaydi.

Implantdan keyin esa nutqiy rivojlanish tabiiy tarzda emas, balki bosqichma-bosqich, pedagogik va logopedik yordam orqali shakllanadi. Shu sababli, implantdan keyingi reabilitatsiya jarayoni — bolaning to'liq ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ faoliyatini tiklashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Koxlear implantatsiyaning maqsadi quyidagidan iborat:

shovqin sharoitida nutqning tushunarligi 10-12%ga ortadi;

fazoda tovush manbaining lokalizatsiyasi yaxshilanadi;

reverberatsiya sharoitida, bir necha so'zlashuvchilar bilan suhbatlashishda nutqning tushunarligi ortadi (cocktail party effect);

bolalar eshitishni va turli tovushlarni ajrata olishni tez o'rganadilar, lug'at boyligini tezroq to'playdilar, gapirishni o'rganadilar.

Bugungi kunda o'tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, qanchalik koxlear implantatsiya erta qilinsa, shunchalik natijalarni yaxshi bo'lishini kuzatishimiz mumkin (Korolyova I.V). Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, bolani 2-3 yoshga to'lguniga qadar, eshitishining pasayganligini va unga eshitish apparati yordam bermayotganligini payqagan kundan boshlab, tezlikda operatsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatib

o'tishmoqda. Bola qanchalik erta operatsiya qilinsa, uning nutqini rivojlanishidagi muammolar ham shunchalik erta bartaraf qilinadi.

Koxlear implantdan keyingi eshitish reabilitatsiyasi. Koxlear implant operatsiyasidan keyingi dastlabki 1–2 oy “moslashuv davri” hisoblanadi. Bu davrda bola yangi tovush muhitiga o'rganadi, eshitish asab tizimi tovushlarni qayta ishlashga moslashadi. Shu bilan birga, logoped va surdopedagog bola bilan individual mashg'ulotlar olib borib, eshitish e'tiborini rivojlantiruvchi o'yin va mashqlarni qo'llaydi.

Koxlear implantatsiya yordamida eshitishni qayta tiklash uch bosqichda olib boriladi. Bulardan eng oxirgi bosqich operatsiyadan keying reabilitatsiya bosqichi bo'lib, oldingi ikki bosqichning samarasini taminlovchi davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichdan boshlab surdopedagog va ota-ona bolaning nutqiy reabilitatsiyasini boshlashlari talab etiladi. Chunki, bola nutqiy ko'nikmani boshqa jarayonlardan ko'ra oila davrasida yaxshi o'zlashtiradi. Bundan tashqari bolani maktabgacha ta'lim muassasasiga olib borganimizda ham u yerni ish jarayonini kuzatishimiz, bolalar bilan shug'ullanish tartibiga e'tibor berishimiz muhim sanaladi. Y.I.Tixeyevaning fikricha, maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning barcha qobiliyatlarini rivojlantirgan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim qobiliyatiga e'tiborni qaratishi darkor: “Chunki nutqni muntazam o'rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i lozim.

Og'zaki nutqni shakllantirish bosqichlari:

1-bosqich. Tovushga e'tibor qaratish

Bu bosqichda bola har xil tovush manbalarini farqlashni o'rganadi. Masalan, qo'ng'iroq, baraban, suv oqimi yoki itning ovozi ajratish orqali tovush manbasini aniqlash mashqlari o'tkaziladi.

Maqsad: eshitish diqqatini rivojlantirish.

2-bosqich. Tovushlarni farqlash

Bola tovushlarni eshitib taqqoslay oladi: masalan, “ma – pa”, “ba – da”. Bu orqali fonematik eshitish shakllanadi.

3-bosqich. So'z bilan bog'lash

Bola tovushni aniq predmet yoki rasm bilan bog'lay boshlaydi. “Top”, “oy”, “ona”, “mashina” kabi so'zlar orqali tovush – ma'no bog'lanishi mustahkamlanadi.

Maqsad: so'z boyligini shakllantirish.

4-bosqich. Talaffuzni shakllantirish

Bola o'qituvchi bilan birga so'zlarni takrorlaydi, talaffuzni tuzatish mashqlari bajariladi. She'r va qo'shiqlar yordamida og'zaki nutq faollashtiriladi.

5-bosqich. Erkin og'zaki muloqot

Bola o'z fikrini mustaqil ifoda eta boshlaydi. Rasm asosida gap tuzish, suhbat, hikoya tuzish mashqlari amalga oshiriladi.

Maqsad: kommunikativ nutqni rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvga erishish.

Reabilitatsiya jarayonida qo'llaniladigan metodlar:

1. Eshitish o'yinlari: tovushni eshitib topish, ovoz manbasini aniqlash.
2. Artikulatsion mashqlar: lab va til mushaklarini mustahkamlash.
3. Takrorlash metodi: o'qituvchi aytgan so'zni bir necha marta takrorlash.
4. Vizual tayanchli o'qitish: rasm, predmet, imo va yuz ifodalaridan foydalanish.
5. Ota-ona bilan uy mashqlari: kundalik suhbatlar, ertak tinglash, o'yinli muloqotlar.

Koxlear implantdan keyingi og‘zaki nutqni shakllantirishda eng muhim jihat — tizimli va uzluksiz mashg‘ulotlardir. Bola eshitish orqali olgan har bir tajriba uning nutqiy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois logoped, surdopedagog va ota-onaning doimiy hamkorligi bolada mustahkam nutqiy ko‘nikma hosil bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib, aytganda koxlear implantli bolalarni shu jarayondan keyingi faoliyatini natijasini ko‘rsatish uchun biz bola bilan uzluksiz shug‘ullanishimiz kerak. Bundan tashqari bolalarni surdopedagog mashg‘ulotlariga borishlarini taminlashimiz kerak. Bundan tashqari kadrlarni ko‘paytirishimiz, ularni ish faoliyatini yaxshilashimiz ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chet el malakasini o‘rganishimiz va o‘zimizga moslashtirishimiz ham muhim sanaladi.

Demak, implant o‘rnatilgan bola uchun eng muhim narsa — muntazam reabilitatsiya va mehr bilan o‘qitishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Малофеев Н. Н. Сурдопедагогика: Учебное пособие. Москва, 2015.
2. G‘aniyeva T. M. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan logopedik ish. Toshkent, 2019.
3. Fayziyeva, D.Nazarova, F.Qodirova. “Surdopedagogika”. Sanostandart. T. 2012. B.289
4. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2), 103-109.
5. Нарметова, Ю. (2014). Кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар психологик хусусиятларининг ўзига хослиги.
6. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2023). BOLALARDA OLIY NERV FAOLIYATI TIPLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARBIYALASH. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 707-712.
7. Qizi, Q. M. O., & Karimovna, N. Y. (2025). ZAIF ESHITUVCHI BOLALARGA IMO-ISHORA TILINI O‘RGATISH. Central Asian Journal of Academic Research, 3(3), 183-186.
8. Нарметова, Ю. К. ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПАЦИЕНТОВ С ПСИХОСОМАТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ, 200.